



УДК:37.018.43:316.624

*Alisher MADRAHIMOV,*  
Central Asian medical Universiteti o'qituvchisi, PhD  
E-mail: alisherw35@gmail.com

O'zMU dotsenti U.Sadikov taqrizi asosida

### O'QUVCHILAR O'RTASIDA ZO'RAVONLIK HOLATLARI PROFILAKTIKASINING ZAMONAVIY USULLARI.

Аннотация

Mazkur maqolada o'quvchilar o'rtasida zo'rvonlik holatlarining oldini olishga qaratilgan zamonaviy profilaktik yondashuvlar tahlil qilinadi. Psixologik monitoring, mediatsiya, raqamli xavfsizlik, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik va inklyuziv muhit yaratish mexanizmlarining samaradorligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida barqaror, xavfsiz va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Empirik kuzatuvlar va amaliy tavsiyalar profilaktika tizimini takomillashtirish imkonini beradi hamda pedagoglar malakasini oshirishga yo'naltirilgan strategiyalarni asoslaydi ilmiy jihatdan.

**Kalit so'zlar:** Zo'rvonlik profilaktikasi, o'quvchilar xavfsizligi, maktab muhiti, psixologik himoya, ijtimoiy moslashuv, pedagogik monitoring, mediatsiya texnologiyalari, konfliktlarni boshqarish, raqamli xavfsizlik, kiberzo'rvonlik, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy hamkorlik, tarbiyaviy strategiyalar, xavfsiz ta'lim muhiti, psixoprofilaktika.

### СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРОФИЛАКТИКИ СЛУЧАЕВ НАСИЛИЯ СРЕДИ УЧАЩИХСЯ.

Аннотация

В данной статье анализируются современные профилактические подходы, направленные на предупреждение случаев насилия среди учащихся. Освещается эффективность психологического мониторинга, медиации, цифровой безопасности, социально-педагогического взаимодействия и механизмов формирования инклюзивной образовательной среды. Результаты исследования способствуют созданию устойчивой, безопасной и здоровой социальной среды в образовательных учреждениях. Эмпирические наблюдения и практические рекомендации позволяют совершенствовать систему профилактики и научно обосновывают стратегии, направленные на повышение профессиональной компетентности педагогов.

**Ключевые слова:** Насильственная профилактика, безопасность учащихся, школьная среда, психологическая защита, социальная адаптация, педагогический мониторинг, технологии медиации, управление конфликтами, цифровая безопасность, кибернасилие, инклюзивное образование, социальное партнёрство, воспитательные стратегии, безопасная образовательная среда, психопрофилактика.

### MODERN METHODS OF PREVENTING VIOLENCE AMONG STUDENTS.

Annotation

This article analyzes modern preventive approaches aimed at preventing incidents of violence among students. It highlights the effectiveness of psychological monitoring, mediation, digital safety, socio-pedagogical cooperation, and mechanisms for creating an inclusive educational environment. The research findings contribute to the formation of a stable, safe, and healthy social environment in educational institutions. Empirical observations and practical recommendations enable the improvement of prevention systems and provide a scientific basis for strategies aimed at enhancing teachers' professional competence.

**Key words:** Violence prevention, student safety, school environment, psychological protection, social adaptation, pedagogical monitoring, mediation technologies, conflict management, digital safety, cyberbullying, inclusive education, social cooperation, educational strategies, safe educational environment, psychoprophylaxis.

**Kirish.** Ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida zo'rvonlik holatlarining ko'payib borishi zamonaviy jamiyat oldida turgan dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Sotsiolog olimlarning ta'kidlashicha, zo'rvonlik faqat individual xulq-atvor natijasi bo'lib qolmasdan, balki ijtimoiy muhit, oila, ta'lim tizimi hamda ommaviy axborot vositalari ta'sirida shakllanadigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Jumladan, E. Dyurkgeym ijtimoiy nazorat mexanizmlarining sustlashuvi deviant xatti-harakatlarning kuchayishiga olib kelishini ilmiy asoslagan [1]. Zamonaviy sotsiolog A. Giddens esa maktab muhitida xavfsizlikni ta'minlash ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikka bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi [2].

Bugungi globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'quvchilar o'rtasida zo'rvonlikning yangi shakllari, xususan, kiberzo'rvonlikning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Sotsiolog M. Kastels

axborot jamiyatida ijtimoiy munosabatlar tarmoq tuzilmasida shakllanishini qayd etar ekan, virtual makon ham real ijtimoiy muhit kabi nazorat va profilaktik mexanizmlarni talab etishini ko'rsatadi [3]. Shu bois, zo'rvonlik profilaktikasi masalasiga faqat jazolovchi choralar orqali emas, balki kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv orqali qarash zarur.

Mazkur maqolada o'quvchilar o'rtasida zo'rvonlik holatlarining oldini olishga qaratilgan zamonaviy profilaktik usullar sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Psixologik monitoring, mediatsiya, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik va inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi zo'rvonliksiz, xavfsiz va barqaror ta'lim muhitini yaratish ehtiyoji bilan belgilanadi.

**Tadqiqot usullari.** Mazkur tadqiqot o'quvchilar o'rtasida zo'rvonlik holatlarining kelib chiqish omillari va ularni oldini olishga qaratilgan zamonaviy profilaktik usullarni

ilmiy asosda tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, unda sotsiologik, pedagogik va psixologik yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks xarakterga ega bo'lib, nazariy va empirik tadqiqot usullarining o'zaro bog'liqligida amalga oshirildi. Bu yondashuv zo'ravonlik muammosini faqat individual darajada emas, balki ijtimoiy muhit va institutlar faoliyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkonini berdi.

**Tadqiqotning metodologik asosi.** Tadqiqot metodologik jihatdan sotsiologiyada keng qo'llaniladigan strukturaviy-funksional yondashuv, tizimli tahlil hamda ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga tayangan holda olib borildi. Strukturaviy-funksional yondashuv o'quvchi shaxsining xulq-atvorini shakllantirishda maktab, oila va tengdoshlar guruhi kabi ijtimoiy institutlarning funksional rolini aniqlashga xizmat qildi. Tizimli yondashuv esa zo'ravonlik profilaktikasini alohida chora-tadbirlar majmui sifatida emas, balki yagona, o'zaro bog'liq mexanizmlar tizimi sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda sotsiologik determinizm tamoyiliga amal qilinib, zo'ravonlik holatlarining paydo bo'lishi ijtimoiy tengsizlik, kommunikativ muammolar, nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi bilan izohlandi. Mazkur metodologik asos tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchligi va xolisligini ta'minlashga xizmat qildi.

Nazariy tadqiqot usullari. Tadqiqotning dastlabki bosqichida nazariy tahlil usullaridan keng foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish usuli orqali mahalliy va xorijiy olimlarning o'quvchilar o'rtasidagi zo'ravonlik, deviant xulq-atvor, ijtimoiy nazorat va profilaktika masalalariga oid qarashlari o'rganildi. Ushbu usul zo'ravonlik profilaktikasining zamonaviy konseptual yondashuvlarini aniqlash imkonini berdi.

Taqqoslash usuli yordamida an'anaviy va zamonaviy profilaktik usullar o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi. Bu jarayonda jazoga asoslangan yondashuvlar bilan psixologik-pedagogik, mediatsion va inklyuziv yondashuvlarning samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari orqali umumiy nazariy xulosalardan aniq empirik holatlarga va aksincha xulosalar chiqarildi.

Empirik tadqiqot usullari. Tadqiqotning asosiy qismi empirik tadqiqot usullariga tayanib olib borildi. Empirik ma'lumotlarni yig'ishda sotsiologik so'rov, kuzatuv, intervyu hamda hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar o'quvchilar, pedagoglar va maktab psixologlarining zo'ravonlik muammosiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga imkon berdi.

Sotsiologik so'rovnoma usuli tadqiqotning muhim empirik asosi bo'lib, unda umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilar o'rtasida anonim so'rovlar o'tkazildi. So'rovnoma orqali zo'ravonlikning eng ko'p uchraydigan shakllari, ularning sabablari va oqibatlari, shuningdek, o'quvchilarning profilaktik tadbirlarga bo'lgan munosabati aniqlashtirildi. Anonimlik tamoyiliga qat'iy amal qilinishi respondentlarning fikrlarini erkin ifoda etishiga sharoit yaratdi.

Kuzatuv va intervyu usullari. Kuzatuv usuli orqali maktab muhitidagi ijtimoiy munosabatlar, o'quvchilar o'rtasidagi muloqot madaniyati va nizoli vaziyatlarning yuzaga kelish jarayonlari o'rganildi. Tizimli va maqsadli kuzatuv zo'ravonlikka olib keluvchi omillarni tabiiy muhitda aniqlash imkonini berdi. Kuzatuv natijalari so'rovnoma ma'lumotlarini to'ldirish va aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Chuqurlashtirilgan intervyu usuli esa pedagoglar, maktab ma'muriyati va psixologlar bilan olib borildi. Intervyular davomida zo'ravonlik profilaktikasida qo'llanilayotgan mavjud mexanizmlar, ularning samaradorligi

va muammoli jihatlari aniqlandi. Ushbu usul orqali amaliy tajribaga asoslangan xulosalar chiqarildi.

Statistik va tahliliy usullar. Olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlashda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar guruhlandi, foiz ko'rsatkichlari aniqlanib, tahliliy jadvallar tuzildi. Statistik tahlil zo'ravonlik holatlarining takrorlanish darajasi va profilaktik choralar samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Kontent-tahlil usuli yordamida maktab ichki hujjatlari, profilaktik dasturlar va tarbiyaviy rejalarning mazmuni o'rganildi. Bu usul zo'ravonlikka qarshi kurashda institutsional yondashuvlarning mavjudligini baholashga xizmat qildi.

Etik tamoyillar va ishonchlik. Tadqiqot jarayonida ilmiy etik tamoyillarga qat'iy rioya qilindi. Respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiylik ta'minlandi, tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriylik asosida amalga oshirildi. Olingan natijalarning ishonchligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlar turli usullar orqali tekshirildi va solishtirildi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotda qo'llanilgan usullar majmui o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik holatlarini profilaktikasining zamonaviy, samarali va ilmiy asoslangan mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot usullarining kompleksligi natijalarning amaliy ahamiyatini oshirishga va ularni ta'lim muassasalarida qo'llash imkoniyatini kengaytirishga zamin yaratdi.

Iqtibos sifatida ilmiy xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'rtasidagi zo'ravonlik holatlarini oldini olish masalasi faqat individual pedagogik choralarga emas, balki tizimli va integratsiyalashgan yondashuvga bog'liqdir. Maktab muhiti, tengdoshlar bilan muloqot, pedagogik monitoring va ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni birlashtirgan profilaktik dasturlar zo'ravonlikning paydo bo'lish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va kibernetika ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy sharoitda muhim hisoblanadi. Anthony Giddens (1991) fikricha, ijtimoiy institutlar o'zaro bog'liq tarzda ishlamas, ijtimoiy nazorat mexanizmlari samaradorligi pasayadi va zo'ravonlik holatlarini bartaraf etish qiyinlashadi [4]. Shu bois, mediatsiya texnologiyalari, inklyuziv ta'lim va psixologik monitoringni o'z ichiga olgan kompleks profilaktik yondashuv ta'lim muassasalarida xavfsiz va barqaror ijtimoiy muhit yaratishda muhim hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv nafaqat zo'ravonlikni kamaytiradi, balki o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy moslashuv va ruhiy barqarorlikni ham oshiradi, pedagoglarning professional malakasini rivojlantirishga ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. BSST tadqiqoti natijasiga ko'ra, maktab o'quvchilarining tengdoshlariga nisbatan shafqatsiz xatti-harakatlarni tushuntiruvchi asosiy 4 ta omil quyidagilardan iborat [5]:

1) o'quvchilarning individual xususiyatlariga ko'ra, shaxsning ichki tajovuzkorligi. Bu shaxsning o'smirlik inqirozi vaqtida kuchayib, bulling holatlarining qariyb 60 %i esa aynan shu yosh guruhida sodir bo'ladi;

2) maktab o'quvchilarining oldingi hayotiy tajribasi, jumladan, o'zlarining ichki shaxsiy tajovuzkorligining namoyon bo'lishi va yaqinlari – oila, yaqin o'rtoqlari guruhi va ilgari borgan ta'lim muassasalarida shunga o'xshash holatlarning guvohi bo'lganligi;

3) muloqotchanlik ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, jumladan, o'z huquqlarini himoya qilishda zo'ravonliksiz munosabatlar haqidagi bilim va tajribaning yetishmasligi;

4) maktabdagi ijtimoiy muhitning o'ziga xosliklari.

O'rganishlar o'rta ta'lim muassasalarida yuz beruvchi bullingning ijtimoiy tuzilmasi ko'pincha 3 ta element: ta'qib

qiluvchi shaxs, jabrlanuvchi va "tomoshabin"ni o'z ichiga olishini ko'rsatmoqda. Maktabda profilaktika tadbirlarini tashkil qilishda ushbu ishtirokchilar ma'lum bir o'ziga xosliklarga ega ekanligini e'tiborga olishi lozim. Xususan, zo'ravonlikni doimiy amalga oshiradigan o'quvchilar quyidagi 5 ta funksiyalarni amalga oshiradi:

1) boshqa o'quvchilarga nisbatan hukmronlik qilish, ularni bo'ysundirish, shu bilan o'z maqsadlariga erishishga intilishning nihoyatda yuqori ekanligi;

2) asabiylashish, boshqalar bilan munosabatda tezda jahli chiqib ketadi;

3) kattalarga, jumladan, ota-ona va o'qituvchilarga nisbatan ko'pincha qarshi borib, tajovuzkor munosabatda bo'ladi;

4) jabrlanuvchiga nisbatan hech qanday rahm-shafqat hissiga ega bo'lmaydi;

5) jismoniy jihatdan boshqalarga qaraganda, odatda kuchliroq bo'ladi.

O'z navbatida, jabrlanuvchi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, profilaktika faoliyatida ulardagi quyidagi 5 ta jihatga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bular:

1) qo'rqqoqlik, hurkaklik, odamovilik va uyatchanlik yaqqol ko'zga tashlanib turadi;

2) ko'pincha, biron nimadan xavotirlanib turishi, o'ziga ishonch darajasi past bo'lib, o'zini baxtsiz hisoblaydi va o'z kuchiga ishonmay, uni past baholaydi;

3) depressiyaga moyil va o'z joniga qasd qilish haqida tengdoshlariga qaraganda ko'proq o'ylaydi;

4) ko'pincha tengdoshlari orasida yaqin do'sti bo'lmaydi va kattalar bilan osonroq muloqotga kirishadi;

5) tengdoshlariga nisbatan jismonan zaif bo'lishi kuzatiladi.

Norvegiyalik pedagog olim D.Olveusning kuzatuvlariga ko'ra, yigitlar qizlarga qaraganda, tajovuzkorroq bo'lishadi [6]. Biroq, qizlar nisbatan kamroq tajovuzkor va zo'ravon bo'lishsa-da, ular ziddiyatli vaziyatga umuman aralashmaydi, degani emas. V.Xeytmayerning fikricha, zamonaviy qizlar "zamonadan orqada qolishmayapti" va ular har doim ham o'zlarini to'g'ri va "namunali" tutishmaydi. Qizlar bullingda o'g'il bolalarnikidan farqli ishtirok etishdi: masalan, ular "sahna ortidagi ko'makchilar" yoki "qarsaklar bilan ma'qullashini izhor qiluvchi" vazifasini bajarishadi. Maktab o'quvchilarining xulq-atvorini kuzatib, aslida qizlar nisbatan pastkash, makkor va xiyonatkor fe'l-atvorni yaqqol ko'rsatishdi. Ular sinfdoshlarini yashirincha masxara qilishib, o'qituvchilar huzurida ular haqida salbiy gapirishadi, yoqirtirmaydigan o'g'il bola ustidan ochiqchasiga kulishadi, ularni "landovur" va "ammamning buzog'i", deb atab, tashqi

ko'rinishi va xulq-atvorini salbiy muhokama qilishadi. Agar o'g'il bolada jismoniy tajovuz ustunlik qilsa, qiz bolani g'iybat, istehzoli gaplar, bilvosita fitna va gij-gijlashlarda namoyon bo'luvchi negativizm boshqaradi, bu esa ba'zan o'g'il bolaning jismoniy tajovuzini keltirib chiqarishga sabab bo'ladi [7].

Tahlil natijasiga ko'ra, o'quvchilar o'rtasidagi nizolar nafaqat raqobat, yetakchilik uchun ochiq kurash natijasida paydo bo'ladi, balki tengdoshlarga nisbatan tajovuzkorlik o'qituvchilarning qobiliyatsizligi ularning salbiy baholari va boshqa katta yoshlilarning xatti-harakatlari yoki harakatsizligi bilan yuzaga kelishi ham mumkinligi aniqlandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kattalarning bola yoki o'smirlarga bo'lgan munosabatida psixologik zo'ravonlikni ustunlik bolada shafqatsizlik va tajovuzkorlikni paydo qilishi kuzatildi. Demak, agar sinf rahbari o'quvchilarga asossiz talablar qo'yib, ularni haqorat qilsa va bosim o'tkazsa, u holda bunday sinfda turli o'zaro dushmanlik kayfiyati kuchayib, o'qituvchi o'quvchilarga hurmat va mehribonlik bilan munosabatda bo'ladigan sinflarga nisbatan agressivligi ancha yuqori bo'ladi.

Tadqiqotlarni kontent tahlil qilganida, o'quvchi bilimni nazorat qilishning qat'iy tizimi oxir-oqibat bilimi past o'quvchida o'z maktabida hurmat qilinishi va umuman, maktab tizimiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish imkoniyatlarini kamayishiga sabab bo'ladi. Natijada aynan o'sha o'quvchi o'zini namoyon qilishni boshqa usullarini qo'llashga intiladi: o'qituvchilar, ma'muriyat, umuman, maktabga nisbatan aks ta'sir, ya'ni butunlay yopilishi kerak bo'lgan tuzilma sifatida qarab, boshqa o'quvchilarni kamsitish va darslarni buzish orqali o'z isyonini ochiq namoyon qilishga o'tadi.

Diqqatga sazovor tomoni, bulling holatlarida o'qituvchidan zo'ravonlikka o'z vaqtida munosib javob bera olish mahorati talab qilinadi. Sinf rahbari, ya'ni guruh yetakchisi sifatida aynan o'qituvchi ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi. O'qituvchining boshqa shaxsga nisbatan har qanday shakl va ko'rinishdagi zo'ravonliklarni qabul qilmasligini namoyon qiluvchi qat'iy pozitsiyasi, ya'ni uning harakatsizligi o'quvchida tajovuz va zo'ravonlikka qarshi o'z resurslarini safarbar qilishga undovchi muqobil yondashuvni yuzaga keltirishga sabab bo'ladi. Bu holatda yordam o'quvchiga tajovuzni yengish va uni cheklash uchun o'z usullarini ishlab chiqishga ko'maklashuvchi choralarni qo'llashdan iborat bo'ladi.

**Xulosa.** Katta yoshlilar (ota-onalar va o'qituvchilar) orasida ushbu muammoni o'z nomi bilan atab, bola va o'smirlar orasida esa uni guruhning ichki o'zaro muloqot, ya'ni birlashish masalasi sifatida (tengdoshlarning bir-biriga zo'ravonligi muammosi sifatida emas) ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

#### ADABIYOTLAR

1. Durkheim É. The Rules of Sociological Method. Preface to the yedition, trans. – W: D.Halls, The Free Press. 1982. – P. 45.
2. A. Giddens "The Constitution of Society" (1984)
3. M. Kastels "The Rise of the Network Society" (1996, Volume I)
4. A. Giddens Sociology Cambridge Angliya (1989)
5. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining "Zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha global holat to'g'risidagi hisoboti (2014)". // [www.who.int/violence\\_injury\\_prevention/violence/status\\_report/2014](http://www.who.int/violence_injury_prevention/violence/status_report/2014)
6. Olweus D. Bulling at School: What We Know and What We Can Do. Blackwell Publishing, 1993.
7. V.Xeytmayer Лэйн Д.А. Школьная травля (буллинг). // Детская и подростковая психотерапия. / Под ред. Д.Лэйна, Э.Миллер. – СПб.: "Питер". 2001. – С. 240–274
8. Yunusov A.B. O'smir-yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari. Sos.f.n. diss. – Toshkent: O'zMU. 2004.
9. Madrahimov A.M O'rta maktablarda o'smirlar o'rtasidagi zo'ravonlik (bullying) holatlarini oldini olishning sotsiologik tahlili Sots.f.f. d ... diss. – Toshkent: DBA.2024.